*Sifatli ta'lim-yorqin kelajak*
*ISSN: 3060-4761*

*TerDPI ILMIY XABARNOMASI*
*SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI*
*НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ*

*www.xabarnoma.terdpi.uz*

**UDK: 378.147:001.89**
**ORCID: 0009-0001-7017-567X**

# SHARQ MUTAFAKKIRLARI IJODINI O'RGANISH ORQALI BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

**Xaitov Zufar Asroraliyevich**
**Termiz davlat pedagogika instituti**
**Tasviriy san'at kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining ijodini o'rganish, ajdodlar siymosini ifodalash, ular qoldirgan ma'naviy meroslarini va rassomlar tomonidan ifodalangan tarixiy portretlarni tahlil qilish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish orqali ajdodlarimiz haqida ma'lumotga ega bo'ladilar va ularning siymosini taniydilar.

Ilmiy tadqiqot ishi natijasida talabalar xalqimizning intellektual boy ilmiy merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida milliy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlaridan faxirlanish asnosida o'z oldilariga ulkan maqsadlar qoyish uchun xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy istixor tuyg'usini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

1. **Tadqiqot maqsadi.** Sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.
2. **Tadqiqot metodlari.** Tadqiqot jarayonida mavzuga oid psixologik, pedagogik, didaktik, metodik, falsafiy, sosiologik adabiyotlarni o'rganish, oliy ta'lim muassasalari uchun DTS, ijtimoiy-gumanitar fanlar o'quv dasturlari va o'quv qo'llanma hamda darsliklarni ilmiy-nazariy tahlil qilish; kuzatish, suhbat, anketa so'rovnoma, test, matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.
3. **Tadqiqot natijalari.** Sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish texnologiyasiga yo'naltirilgan pedagogik tushunchalarni turkumlashtirish va shu asosda Internet tarmog'ida ma'naviy-axloqiy tavsifdagi chellenjlar ishlab chiqish asosida tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish mazmuni boyitilgan.
4. **Xulosalar.** Milliy iftixor tuyg'usi talabalarda faxrlanish, g'ururlanish mustaqil fikrlash, ilmiy izlanishlar olib borish qobiliyatlari va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun tarixiy, falsafiy va pedagogik yondashuvlarni uyg'unlashtirish lozim. Tadqiqot natijalariga asoslanib, sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'z:** milliy iftixor, pedagogik yondashuvlar, ilmiy tadqiqot, mustaqil fikrlash, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'lim sifati, talabalar faolligi, ilmiy metodologiya miniatyura, komponovka, tuslash, yaxlit idrok, perspektiva, komponovka, simmetriya.

# НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

# ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА ЧЕРЕЗ ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЕНИЙ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ.

**Аннотация:** В данной статье, изучая произведения восточных мыслителей, выражающие образы предков, анализируя их духовное наследие и исторические портреты, выраженные художниками, будущие учителя изобразительного искусства узнают о наших предках и узнают их образ, развивая чувство национальной гордости.

В результате научных исследований студенты служат достижению перед собой великих целей, гордясь достижениями национальной культуры, экономики, науки, техники и технологий, основанными на интеллектуальном богатом научном наследии и общечеловеческих ценностях нашего народа. Результаты исследования служат основой для развития чувства национальной гордости у будущих преподавателей изобразительного искусства в высших учебных заведениях.

**1. Цель исследования**. Речь идет о разработке технологии развития чувства национальной гордости у будущих учителей изобразительного искусства путем изучения произведений восточных мыслителей.

**2. Методы исследования.** В ходе исследования проводится изучение психолого-педагогической, дидактической, методической, философской, социологической литературы по теме, научно-теоретический анализ ДТС для высших учебных заведений, учебных программ и пособий и учебников по общественным и гуманитарным наукам; использовались методы наблюдения, интервью, анкетирования, теста, математико-статистического анализа.

**3. Результаты исследования**. Путем изучения произведений восточных мыслителей обогащалось содержание развития чувства национальной гордости у учителей изобразительного искусства на основе категоризации педагогических концепций, ориентированных на технологию развития чувства национальной гордости у будущих учителей изобразительного искусства и на основе разработки морально-этических задач в сети Интернет.

**4. Выводы.** Чувство национальной гордости играет важную роль в повышении студенческой гордости, самолюбия, независимого мышления, научно-исследовательских навыков и социальной ответственности. Чтобы эффективно организовать этот процесс, необходимо объединить исторический, философский и педагогический подходы. По результатам исследования разработаны рекомендации по развитию чувства национальной гордости у будущих учителей изобразительного искусства путем изучения произведений восточных мыслителей.

**Ключевые слова:** национальная гордость, педагогические подходы, научные исследования, самостоятельное мышление, инновационные образовательные технологии, качество образования, студенческая активность, научная методология, миниатюра, композиция, штриховка, целостное восприятие, перспектива, композиция, симметрия.

# SCIENTIFIC THEORETICAL BASIS OF DEVELOPING A SENSE OF NATIONAL PRIDE IN FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS THROUGH THE STUDY OF THE WORK OF EASTERN THINKERS.

**Annotation:** In this article, by studying the work of Eastern thinkers, expressing the image of ancestors, analyzing the spiritual heritage they left behind and historical portraits expressed by artists, future teachers of fine arts will gain information about our ancestors and recognize their image by developing a sense of national pride.

As a result of scientific research, students will be able to set ambitious goals for themselves while being proud of the achievements of national culture, economy, science, technology and technology based on the rich intellectual and scientific heritage of our people and universal values. The results of the research will serve as a basis for developing a sense of national pride in future teachers of fine arts in higher educational institutions.

**1. Research objective.** To develop a technology for developing a sense of national pride in future teachers of fine arts through the study of the work of Eastern thinkers.

**2. Research methods.** In the research process, the methods of studying psychological, pedagogical, didactic, methodological, philosophical, sociological literature on the topic, scientific and theoretical analysis of DTS, social and humanities curricula and textbooks for higher educational institutions, observation, interview, questionnaire, test, mathematical and statistical analysis were used.

**3. Research results.** Based on the study of the work of Eastern thinkers, the content of developing a sense of national pride in fine arts teachers was enriched by categorizing pedagogical concepts aimed at the technology of developing a sense of national pride in future teachers of fine arts and, on this basis, developing challenges with a spiritual and moral description on the Internet.

**4. Conclusions.** A sense of national pride plays an important role in increasing students' pride, self-esteem, independent thinking, scientific research skills and social responsibility. In order to effectively organize this process, it is necessary to combine historical, philosophical and pedagogical approaches. Based on the results of the study, recommendations were developed for developing a sense of national pride in future teachers of fine arts through the study of the work of Eastern thinkers.

**Keywords:** national pride, pedagogical approaches, scientific research, independent thinking, innovative educational technologies, educational quality, student activity, scientific methodology, miniature, composition, shading, holistic perception, perspective, composition, symmetry.

**KIRISH.** Tasviriy san'atni o'qitish tizimida sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratish masalalari dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida Prezident tashabbusi bilan 2023-yilni **«Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»** deb e'lon qilindi. Prezidentimiz o'z nutqida shunday dedilar: Imom Moturidiy bobomizning: **"El-u yurt bilan hamdard bo'lib yashagin, toki xalq hamisha sen bilan birga bo'lgay",** degan hayotiy hikmati har bir vazir, har qaysi rahbarning ongi, qalbi va harakatida muhrlanishi lozim.[4] Sharq mutafakkirlarining hayoti va ijodlari davomida xalq dardi bilan yashaganligi tarixiy manbalarimizda o'z ifodasini topgan. Tarixiy manbaalardagi ma'lumotlardan tashqari tasviriy san'at dars jarayonlarida ajdodlarimizning tashqi ko'rinishlarini tasvirlashni o'rganish orqali ajdodlarimizni siyratini tanish yosh avlodga milliy iftixor, g'urur faxirlanish, vatanga bo'lgan muhabbatini rivojlantirishga sabab bo'ladi. Bu borada biz tasviriy san'atning portret janriga yuzlanamiz. Tasviriy san'atning portret janrida yaratilgan asarlarning badiiy tahlili talabalarning milliy iftixor ruhida tarbiyalashning asosi sifatida xizmat qiladi. Jumladan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur kabi ko'plab ajdodlarimizning siymolarini tahlil qilib ular



[4] https://president.uz/oz/lists/view/5774

qoldirgan ma'naviy me'roslarini o'rganish va ta'kidlash asnosida talabalarda faxr g'urur tuyg'ulari gurkirab oshib boradi va ajdodlarga o'zlarni qiyoslab ular kabi bo'lishga intiladi. **A.Abdullayev. "Shoir Alisher Navoiy". 1981-yil.** Bu shafqatsiz satrlar "Hayrat ul-abror" dostonidan olingan. U "Xamsa"dagi birinchi doston hisoblanadi, unda bayonning xalqchilligi va haqqoniyligi birinchi shart bo'lib qoldi. Eng avvalo bu shart umuman adabiyot va san'atni foydali va ta'sirchan qiladi. Agar adabiyot va san'at hayot haqiqatidan mosuvo bo'lsa, ular insoniyat madaniyati va ma'naviyati mulki bo'la oladimi, degan savol tug'iladi: G'azalda agar ma'no bo'lmasa Uning qadri yo'qdir bo'lsa ham jarangdor.Agar so'z haqiqat bo'lsa, Tosh erib suvga aylanar.[5] Bu so'zlar dasturiy hujjat hisoblanadi va Alisher Navoiy she'riyati bilan



tanish bo'lgan va u orqali tarbiyalangan, qandaydir yangilik va go'zallik yaratayotgan barcha ijod axli uchun zaruriy qoida hisoblanadi. Shoir xalqiga va Vataniga xizmat qilgan hukumdorni tan oladi, hukumdorlar yaratganing yerdagi soyasi degan fikrni rad etadi: O'zingning qulingga o'xshaysan tamom Botiningu zohiring unikidek davom. XV asrda hukumdorning yaqin maslahatchisi bo'lib turib bunday so'zlarni aytish uchun ulkan jur'at kerak edi. Rassom Abdulhaq Abdullayev yaratgan Alisher Navoiy portreti estetik qimmati bilan birga buyuk shoirning ma'naviy olamini ochib berishi bilan ham qimmatlidir. Tasviriy san'at ustasi Akmal Nuriddinov ijodidan misol Mirzo Bobur portreti. Rassom Aziza Mamatova mulohazalaridan: "San'atkor Akmal Nuriddinovning portret asarlari rangdor, nazokatli va chuqur ma'noli hisoblanadi. Portretda Bobur Mirzo og'ir janglarda erishgan Hindiston hukmdorlari taxti yonida tomoshabinlarga orqa o'girib turibdi. Yondan tasvirlangan yuzida chuqur kechinmalar zohir bo'lgan. Unda chuqur tafakkur jarayoni kuzatiladi, ayni paytda ma'lum xayolot olamiga cho'mgandek. Bobur Mirzo bu taxtga o'tirgach Vataniga qaytish imkoniyati yo'qolishi va butun qolgan umr hukmdorlikning og'ir yukini ko'tarish bilan bog'liq o'ylar girdobida turibdi. Bobur Mirzo o'ylab ish qilardi va imkon boricha qisqa hayot talablariga rioya qilardi. **A.Nuriddinov. "Bobur Mirzo". 1996**-yil. Yana bir Mirzo Bobur portretida, u bir qo'lida anor ushlagan holda tasvirlangan, u tomoshabinga butunligicha boqqan. Ko'zlari pastga tushirilgan qo'l kaftlariga qarab turibdi. Bu portretda ham u taxt yonida tasvirlangan va o'ychan ko'rinadi. Asar rangi yengil va shu bilan birga murakkab, u rassomga xos bo'lgan usuldagina ishlangan. Bu asarlarga nigoh tashlab, xuddi shularni o'yladim". Temuriylarga bag'ishlangan ba'zi portretlardagi obrazlar xuddi shunday. Bir nigoh tashlab san'at asarining butun mohiyatini anglash qiyin. Tasviriy an'at asarlarini qayta va qayta tomosha qilish, tahlil qilish va ularga rassomlar singdirgan g'oyani ochish lozim bo'ladi. Xalq tasviriy merosiga taxliliy yondashuv o'tmish merosiga to'g'ridan to'g'ri tahlit emas, balki milliy o'ziga xoslikni izlash bilan bog'liq bo'lgan O'rta Osiyo tasviriy san'atining ijodiy an'analarini qayta anglashdir. A.Nuriddinov. "Bobur Mirzo". 1996-yil. 1996-yili Toshkent shahridagi "Xamar" Markaziy ko'rgazma zalida hukmdor Amir Temur va temuriylarga bag'ishlangan ko'rgazma namoyish etildi.

[5] O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari (XX asr ikkinchi yarmi-XXI asr boshlari) MONOGRAFIYA Ulug'bek mamatov Toshkent-2021

Mahoratli rassom Javlon Umarbekov bu ko‘rgazmada oval shaklidagi ramada, yaxshi stilistik usulda, bir oz shartli, lekin chiroyli ishlangan Amir Temur va Mirzo Bobur portretlarini namoyish qildi. Amir Temur portreti belidan tasvirlangan. Hukmdor naqshinkor buklamlari osilib turgan matoli dabdabali chodirda o‘tiribdi. Bu kuchli va qudratli insonning fikri tarang ishlayotganligi seziladi. Uning ko‘zlarida qat’iylik va jasorat zohir bo‘lgan. Kompozitsiya ixcham tuzilgan, uni sirli ohangi, yaxshi shakli sezilib turadi. Rassomning ko‘pgina asarlari kabi bunda ham barcha jihatlar asosli hal qilingan. Sarkarda obrazida nafaqat jismoniy qudrat, balki tiniq fikrni ham o‘qish mumkin. U qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan shohona libosda tasvirlangan. Uning yelkasiga qora qunduz terisi bilan hoshiyalangan, qimmatbaho metallardan ilgak bilan ilingan.

**J.Umarbekov. “Mirzo Bobur portreti”. 1996-yil.** Mirzo Bobur portreti. Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning (1483-1530) portreti ham temuriylar portreti turkumiga kiradi, u rassom Aziza Mamatova tomonidan yaratildi. Hukmdor Amir Temur evarasi Bobur Mirzo 1483-yili Amir Temurning uchinchi o‘g‘li Mironshohning nevarasi Umarshayx Mirzo hukmdorlik qilgan Farg‘ona vodiysidagi Axsi qishlog‘ida tug‘ildi. Bu portret shoh sarkarda va shoirning qiyin va murakkab hayoti haqida hissiyotli va badiiy hikoya qiladi. Mirzo Bobur bolaligida otasidan ayrildi va onasi Nigoraxonim va opasi Xonzodabegim tomonidan tarbiyalandi. Ular o‘z davrining ma’rifatli ayollari bo‘lgan edi. Bobur Mirzo o‘z davrining allomalaridan biri bo‘lgan edi. Portretda u yarim tunda bog‘da o‘tirgan holda tasvirlangan. O‘ng qo‘lining panjalari o‘rindiq suyanchig‘iga qo‘yilgan, ingichka va kuchli barmoqlari bilan qalam ushlagan, chap qo‘lida oq qog‘oz. Bobur Mirzo uzoqlarga tikilgan. Portretdagi ranglar did bilan tanlangan. Qoramtir kumushrang osmon rangi fonida Mirzo Boburning to‘rtdan uch qismi tasvirlangan yuzi o‘ychan ko‘rinadi. Yuz ifodasidan uning insoniyligi va ilhomidan darak beradi. **A.Mamatova. “Mirzo Bobur portreti”. 1999-yil.** Yoziq taqdirdan hech kim qochib qutulolmas,Kurash ham, chidam ham, oh-voh ham yordam bermas. Azoblarni xursandchilik bilan yeng,olam motam ermas: Lahzalik azob uqubat chekishga arzimas! Mayda oq gulli alvon ko‘ylagi ustidan u kalta yengli tillarang kamzul kiyib olgan. U tog‘ yo‘lbarsi mo‘ynasi bilan hoshiyalangan. Kamzulning tillarang foniga turli rangdagi shoyi iplar bilan turli shaklda kiyiklar tikilgan. Kamzul bezakdor va hukmdor shoirni bezab turibdi. Bobur Mirzoning boshida och yashil, ingichka tillarang chiziqli naqshdor yengil shoyi matodan salla. Tovus pati sallaga qirrali qilib ishlangan yoqut bilan qadab qo‘yilgan. Hukmdor, shoir va mutafakkir o‘zi tashlab ketishga majbur bo‘lgan Vatanidagi o‘z hayotini xotiralayotgandek ko‘rinadi. Kumushrang ko‘k tungi osmonda oy suzib yuribdi, uning nurlari yosh shaftoli daraxtining pushti gullarini yoritib turibdi, daraxt yonidagi o‘rindiqda Bobur Mirzo o‘tiribdi va atrofdan yengil muloyim kuy taralayotgandek go‘yo.



**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Buyuk o‘zbek mutafakkiri Muhammad al-Xorazmiy o‘zining “Al jabr va al muqobila” nomli asarida pedagogik faoliyatga baho berib, quyidagilarni yozadi: “Ulardan biri o‘zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o‘zib ketadi va o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, tabiat sirlarini ochadi, yo‘lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblardan nuqsonlar topadigan, sochilib yotganini yig‘adigan odam bo‘lib, u o‘zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo‘ladi,

takabburlik qilmaydi va o‘zi qilgan ishdan mag‘rurlanmaydi” [19]. Bu bilan olim pedagogning qiyin muammolarni oson qilib tushuntira olish, ijodkorligi va mahoratini qo‘llab quvvatlaydi.

Biroq ushbu ishlar mazmunidan shuni anglash mumkinki, yurtimizda jahon ilm-fani rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan ko‘plab allomalarimiz, ayniqsa, zaminimizda yetishib chiqqan buyuk siymolarning hayoti va ma’naviy merosini pedagogik jihatdan tahlil qilish lozimligi tadqiqot muammosi sifatida aks etadi.

Abu Nasr Forobiy ham o‘zining “Baxt-saodatga erishish yo‘llari haqida risola” nomli asarida ta’lim-tarbiya berish usulini ikki turga-rag‘batlantirish va jazolashga (majbur qilish) ajratadi.

U mazkur usullarni sharhlar ekan, o‘qituvchining pedagogik mahoratiga ham to‘xtalib o‘tadi: “Bolalar ustida turgan odam muallim bo‘lib, u tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi. Mana shundan ma’lum bo‘ladiki, hukumat va muallim har ikkovi oz bo‘lsa-da, bolalar yoki xalqqa tarbiya beruvchilar, ustoz va muallimlardir. Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so‘zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi” [11].

Forobiy yana “ta’lim-tarbiya ahlllari ham o‘z bilimlarining darajasiga qarab” bir-birlaridan farq qilishlari, ortiq-kam bo‘lishlari, ba’zi birlarida kasb-ixtiro quvvati bo‘lmasligi, ba’zilarida esa bu quvvatning kamroq bo‘lishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Forobiy shogirdiga nisbatan o‘ta yumshoq munosabatda bo‘lishning zararli ekanligi haqida ham uqtirib o‘tadi [11,12].

Ushbu tadqiqotda, eksperimental va empirik usullar qo‘llanildi. Pedagogik kuzatish metodi, suhbat metodi, pedagogik tajriba metodi, pedagogik tahlil metodlaridan unumli foydalangan holda, mutafakkirlar hayoti va asarlarining mazmun-mohiyati atroflicha yoritildi. Xulosaning yanada asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida talabalar o‘rtasida test so‘rovi o‘tkazildi. Shuningdek, eksperimental metod orqali turli pedagogik yondashuvlarning samaradorligi baholandi. Natijalarning obyektivligini oshirish maqsadida statistik ma’lumotlar tahlil qilinib milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar aniqlab olindi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirish hozirgi davrda yoshlar hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning shakllanishi talabalar, pedagoglar va ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan ko‘p qirrali jarayondir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy iftixor tuyg‘usini rivojlanishi ta’limning sifati, talabalar bilimlarining mustahkamligi, ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivoji va jamiyatimizda yoshlar ajdodlarimiz siymosini tanish bilan bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqot doirasida olib borilgan so‘rovlar natijasida talabalarning aksariyati milliy iftixor tuyg‘usi rivojlantirish va ularning siymosini tanish zarurligini tan olishlari bilan birga, bu jarayonda duch kelinadigan muammolarni ham ta’kidlaganliklari aniqlandi. Talabalar orasida akademik halollik va plagiat muammosi jiddiy masalalardan biri sifatida ajralib turadi. So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning **66%** qismi milliy iftixor tuyg‘usi rivojlantirishga ajdodlar siymosini tanishga yetarlicha e’tibor berilmasligini bildirgan. Shuningdek, **54%** respondentlar ta’lim jarayonida milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirish uchun maxsus texnologiyalar yetarli emasligini ta’kidlagan.

Eksperimental tadqiqotlar davomida turli pedagogik strategiyalarning milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirishga ta’siri o‘rganildi. Jumladan, interfaol o‘qitish usullari, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish bo‘yicha maxsus kurslarning samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, **muammoli ta’lim metodikasidan foydalanilgan guruhda** talabalar milliy iftixor tuyg‘usiga oid bilimlarini **32%** ga oshirishga

erishgan, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari esa **25%** ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalari asosida milliy iftixor tuyg'usi rivojlantirishga ajdodlar siymosini tanishga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlab olindi.

**Mutafakkirlar siymosini tanishga targ'ib qilinishi:**

- plagiatga qarshi tizimlarning joriy qilinishi (turnitin, antiplagiat, grammarly kabi dasturlar).

- badiiy tahlil qoidalarini tushuntirish bo'yicha maxsus masterclass, seminar va kurslar tashkil etish.

Tadqiqot natijalari milliy iftixor tuyg'usi rivojlantirish jarayoni tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozimligini ko'rsatdi. Eng samarali metodlar qatoriga ko'rgazmalilik, **muammoli ta'lim, interfaol pedagogika** va **ilmiy faoliyatga rag'batlantirish dasturlari** kiradi. Shu asosda ta'lim muassasalari, pedagoglar va talabalar milliy iftixor tuyg'usi rivojlantirish bo'yicha aniq yo'nalishlar asosida harakat qilishlari lozim.

**XULOSA.** Oliy ta'lim tizimida Sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash, uni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish va bu jarayonning samaradorligini ta'minlovchi yangi dunyoqarashdagi o'qituvchi shaxsini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik ta'limotlar tarixida sharq mutafakkirlarining milliy iftixor g'urur ma'rifatparvarlik qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Garchi mutafakkirlarimizning ma'naviy merosi Sharq va G'arbda keng o'rganilganligiga qaramasdan, uning ma'naviy merosini pedagogik jihatdan tadqiq etish zaruriyati mavjud. Ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy merosini o'rganish asnosida Sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda, o'qitishning ilg'or metodlarini joriy etish orqali mutafakkirlarning ma'naviy merosini o'rganish mexanizmlarini takomillashtirish, jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, interfaol ta'limni rivojlantirish oliy ta'limda o'quv-bilish jarayonini tashkil etishning shart-sharoitlari, bu jarayonda Sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish mazmunini aniqlash masalalari o'z yechimini kutayotgan dolzarb pedagogik muammolar sirasiga kirishi ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar tahlili natijasida aniqlandi.
2.Tadqiqot muammosini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish natijasida oliy ta'lim muassasalarida Sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga asoslangan o'quv-bilish jarayonini tashkil etish o'zining umumpedagogik, umumdidaktik hamda psixologik xususiyatlariga ega bo'lib, bu xususiyatlarni ochib berish natijasida oliy ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyati vujudga keladi.

3. Sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga asoslangan o'quv – bilish jarayonini tashkil etishning pedagogik shart – sharoitlarini aniqlash uchun bu sohada mavjud bo'lgan yondashuvlar, tushunchalar, qarashlar, ta'limotlarni to'plash, tasnif qilish va uni o'qituvchi faoliyatiga joriy etish maqsadida tegishli ilmiy – metodik tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyatining mavjudligi ayon bo'ldi.

4.Al-Hakim at-Termiziy asarlari vositasida talabalarda ma'rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda quyidagi omillarning ustuvor o'rin tutishiga ishonch hosil qilindi:

1.Subyektiv omillar: Al-Hakim at-Termiziy merosida insonni tarbiyalovchi sifatlarning yuqori darajada turishi; inson faoliyatining ko'pqirraliligi, o'z tashvishi, o'z yumushi, o'z shodligi va shunga monand insonparvarlik, g'oyalarning namoyon bo'lishi; Sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalari, oila va mahalla ishtirokini jalb etishga erishish; inson aqliy tafakkurini rivojlantirishga oid ilg'or tajribalardan samarali foydalanish; talabalarida sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limotlaridan keng foydalanishga e'tibor berilishi; qolishi; ijtimoiy munosabatlarda voqealar girdobiga kirib talabalarda sharq mutafakkirlari ilmiy merosini o'rganish ehtiyojining paydo bo'lganligi; bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida sharq mutafakkirlari asarlarini o'rganishda sharqshunos, tarjimashunos olimlarlarning bilimlariga tayanish va ularning imkoniyatlaridan keng foydalanish; Sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga texnologiyasi (mazmuni, shakl, metod va vositalari)ni ishlab chiqish va hokazolar.

2. Obyektiv omillar: oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga imkon beruvchi sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosiga asoslangan moddiy negizning yaratilishi sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish g'oyalar singdirilgan o'quv manbalari (o'quv dasturi, qo'llanma, elektron darslik, didaktik materiallar hamda ko'rgazmali qurollar)ning yaratilishi; oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga axborotli texnologiyalar (ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televideniye va Internet tarmog'i) xizmatidan foydalanishning yo'lga qo'yilishi.

Sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish jarayonini tashkil etish faqatgina bilimlar, axborotlarni o'zaro ayiraboshlash, tabiiy holatlarni bashorat qilish, ma'rifat tarqatish hamda taqdim etish imkoniyatigina emas, balki nomuntazam, ochiq, to'g'ridan to'g'ri va teskari muloqot vaziyati. Shu bilan bir qatorda sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni asrash, dunyoqarash, intellektual salohiyatni kengaytirishga keng pedagogik imkoniyat yaratiladi va kelajakni belgilab beruvchi asosiy pedagogik omil sifatida belgilanadi.

**Adabiyotlar**

1.Baymetov B. "Qalamtasvir". Darslik 1-qism.- Toshkent, Musiqa 2006

2.Xalilov R. Рисунок.Toshkent «Navruz» 2013.

3.Кузин В.С. Психологиуа. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4.Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5. Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.

http://www.edu.uz

6. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-2020. – 2020. – С. 105.

7. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 05. – С. 166-168.

8.Asroralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception Formation in the Description of the Image //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 312-316.

9. Asroralievich, K. Z., Shonazarovna, M. M., & Ziyodullayevna, C. P. (2024). Improving the Education of Students in the Spirit of National Pride Through the Expression of the Image of Ancestors. *Miasto Przyszłości*, *54*, 1707-1711.

10. Xaitov, Z. A. (2023). AJDODLAR SIYMOSINI IFODALASH VOSITASIDA TALABALARNI MILLIY IFTIXOR RUHIDA TARBIYALASH METODIKASI. *Inter education & global study*, *1*(4), 30-32.

11. Хаитов, З. А. (2022). ПСИХОЛОГИК ПОРТРЕТ ҚАЛАМТАСВИРИНИ ТАСВИРЛАШДА ИДРОК ЭТИШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific Impulse*, *1*(4), 184-189.

12. Xaitov, Z. A. (2023). AJDODLAR SIYMOSINI IFODALASH VOSITASIDA TALABALARNI MILLIY IFTIXOR RUHIDA TARBIYALASH METODIKASI. *Inter education & global study*, *1*(4), 30-32.

13. Xaitov, Z. A. (2023). O 'QUVCHILARGA TASVIRIY SANAT DARSLARIGA INDIVIDUAL YONDASHUVNING NAZARIYADAGI AHVOLI TAHLILI. *Inter education & global study*, *1*(4), 27-29.